

**V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**ABDUKAXOROVA ZULXUMOR TUXTASINOVNA**

**BA'ZI MODELLAR UCHUN KUCHSIZ DAVRIY UMUMLASHGAN  
 $p$ -ADIK GIBBS O'LCHOVLARI**

**01.01.01 – Matematik analiz**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI  
bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI**

**Namangan - 2025**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации  
доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
physical-mathematical sciences**

**Abdukaxorova Zulxumor Tuxtasinovna**

Ba'zi modellar uchun kuchsiz davriy umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lchovlari .....3

**Abdukahorova Zulkhumor Tukhtasinovna**

Weakly periodic  $p$ -adic generalized Gibbs measures for some models .....21

**Абдукахорова Зулхумор Тухтасиновна**

Слабо периодические  $p$ -адические обобщённые меры Гиббса для некоторых моделей.....37

**E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....41

**V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**ABDUKAXOROVA ZULXUMOR TUXTASINOVNA**

**BA'ZI MODELLAR UCHUN KUCHSIZ DAVRIY UMUMLASHGAN  
 $p$ -ADIK GIBBS O'LCHOVLARI**

**01.01.01 – Matematik analiz**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Namangan – 2025**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2023.3.PhD/FM903 raqam bilan ro'yhatga olingan.**

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (<https://kengash.mathinst.uz>) va "ZiyoNet" axborot ta'lim tarmog'ida (<http://www.ziynet.uz>) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Raxmatullayev Muzaffar Muxammadjonovich**  
fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**G'anixo'jayev Nosir Nabiyeovich**  
fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Muxamedov Farrux Maksutovich**  
fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "16"- dekabr kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.: (+998 71) 207 91 40, e-mail: [uzbmath@umail.uz](mailto:uzbmath@umail.uz), Website: [www.mathinst.uz](http://www.mathinst.uz)).

Dissertatsiya bilan V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (217-raqami bilan ro'yhatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.: (+998 71) 207 91 40).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "02"- dekabr kuni tarqatildi.  
(2025-yil "02"-dekabrdagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

**U.A. Rozikov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi,  
f.-m.f.d., akademik

**J.K. Adashev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

**U.U. Jamilov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash huzuridagi  
Ilmiy seminar raisi,  
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosida amalga oshirilayotgan fizik va biologik jarayonlarning termodinamik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan turli ilmiy va amaliy tadqiqotlar aksariyat hollarda statistik mexanika modellariga olib kelinadi. Mazkur modellar tabiiy ravishda Arximed va noarximed modellarga ajraladi. Noarximed muhitda sodir bo'layotgan jarayonlarning modellarini tadqiq qilishda  $p$ -adik Gibbs o'lchovlari asosiy vosita hisoblanadi va faza almashishlar nazariyasida markaziy o'rin tutadi.  $p$ -Adik Gibbs o'lchovlari nafaqat statistik fizikaning nazariy rivojlanishi uchun, balki kimyo, materialshunoslik, biologiya va axborot texnologiyalari sohalaridagi amaliy muammolarni hal qilish uchun ham muhim ahamiyatga ega. Biroq, statistik mexanikaning klassik modellari uchun ham  $p$ -adik Gibbs o'lchovlari to'plamining to'liq tavsifi ochiq va murakkab muammo bo'lib qolmoqda, bu esa bunday o'lchovlarni boyitish, tasniflash va topilgan o'lchovlar xossalarini tahlil qilishni dolzarb tadqiqot yo'nalishiga aylantiradi.

Hozirgi kunda dunyoda panjarali sistemalarda aniqlangan Gamiltonian uchun  $p$ -adik Gibbs o'lchovlari mavjudligini aniqlash va bunday o'lchovlar to'plamini to'liq tavsiflash dolzarb vazifalardan biridir. Statistik fizikaning faza almashishlar nazariyasida berilgan fizik model uchun kamida ikkita umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lchovini mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan tashqi maydonli va tashqi maydonsiz Gamiltonianlarga mos keluvchi translyatsion-invariant, davriy va kuchsiz davriy umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lchovlarining mavjudligini aniqlash hamda bunday o'lchovlar to'plamini to'liq tavsiflash va topilgan o'lchovlarning chegaralanganligini tekshirish orqali qaralayotgan modellar uchun faza almashinuvi mavjudligini aniqlash maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda rivojlanishning asosiy tayanchlaridan biri hisoblangan fundamental fanlarning ilmiy va amaliy qo'llanilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, so'nggi yillarda Keli daraxtidagi haqiqiy va  $p$ -adik sonlar maydonida statistik mexanikaning klassik modellari uchun translyatsion-invariant, davriy va kuchsiz davriy Gibbs o'lchovlarining mavjudligini aniqlashda, shuningdek, bunday o'lchovlar to'plamini boyitishda salmoqli natijalarga erishildi. Respublikamizda algebra va uning tatbiqlari, differensial tenglamalar va uning tatbiqlari, chiziqsiz tizimlar, dinamik tizimlar va ularning tatbiqlarini matematik modellashtirish, stoxastik tahlil, tibbiy-biologik informatika, hisoblash matematikasi yo'nalishlari fundamental ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi<sup>1</sup>. Qarorning ijrosini ta'minlash maqsadida, statistik mexanikaning klassik modellari uchun faza

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi "Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi № PQ-4387-son qarori.

almashishlar nazariyasini rivojlantirish va bu ilmiy natijalarni fanning turdosh sohalarida qo'llash muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-son "Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. "Matematika, mexanika va informatika" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Amerikalik olim J.U.Gibbs doimiy haroratga ega va tashqi muhit bilan issiqlik muvozanatida bo'lgan tizimlar uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi Gibbs taqsimoti tushunchasini kiritgan. Haqiqiy qiymatli limit Gibbs o'lchovlarining umumiy xususiyatlari R.L.Dobrushin, O.Lenford va D.Ryuel ishlarida asoslab berilgan. Ushbu o'lchovlarning zamonaviy nazariy asoslari R.Bakster, H.O.Georgi, V.A.Malyshev, R.A.Minlos, K.Preston, D.Ryuel, Ya.G.Sinai, G.Gallavotti, F.Bonetto, J.Gentile, Jin Zin-Justin, N.N. G'anixo'jayev, U.A.Rozikov va F.M.Muxamedovlarning ilmiy ishlarida keng qamrovli tarzda ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, R.L. Dobrushin haqiqiy qiymatli limit Gibbs o'lchovlarining mavjudligi haqida muhim teoremani isbotlagan. Statistik mexanikaning klassik modellari uchun Gibbs o'lchovlari muammosi R.L.Dobrushin, G.R.Braytveit, P.Uinkler, Yu.M.Suxov, J.Martin, N.N.G'anixo'jayev, U.A.Rozikov, F.M.Muxamedov, D.Gandolfo, M.M.Rahmatullayev, R.M.Xakimov, G.I.Botirov, O.N.Hakimov, E.Normatov, Sh.Shoyusupov, F.Haydarov, M.A.Rasulova, A.M.Tuxtaboyev, J.Dehqonov, O.Sh.Qarshiboyev va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida chuqur o'rganilgan. Haqiqiy qiymatli Gibbs o'lchovlari nazariyasida o'lchovlarni davom ettirishga oid Kolmogorov teoremasi alohida ahamiyatga ega. Uning noarximed ehtimollik taqsimotlariga mos keluvchi muqobili N.N.G'anixo'jayev, F.M.Muxamedov va U.A.Rozikov hamda F.M.Muxamedovlar tomonidan isbotlangan. Shuningdek, muvofiqlik shartini qanoatlantiruvchi noarximed o'lchovlar uchun limit o'lchovning mavjudligi A.Yu.Xrennikov va S.Ludkovskiy tomonidan ko'rsatib berilgan. Ushbu natijalar panjarali tizimlarda turli  $p$ -adik modellar uchun Gibbs taqsimotlarini tadqiq etishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilgan. N.N.G'anixo'jayev, F.M.Muxamedov va U.A.Rozikovlar o'z tadqiqotlarida  $\mathbb{Z}$

panjaradagi Izing modeli uchun  $p$ -adik Gibbs taqsimotining yagonaligini isbotlagan. Shuningdek, R.Gandolfo, U.A.Rozikov va J.Ruislarning ishlari natijasida  $k$ -tartibli Keli daraxtida qattiq sfera modeli uchun  $p$ -adik limit Gibbs taqsimoti mavjud bo'lishining shartlari aniqlangan.

Panjaradagi Izing modeli uchun  $p$ -adik Gibbs taqsimotining yagonaligi N.N.G'anixo'jayev, F.M.Muxamedov va U.A.Rozikov ishlarida isbotlangan. N.N.G'anixo'jayev va H.Akinning ishlarida esa Izing-Vannimenus modeli uchun  $p$ -adik Gibbs o'lchovining yagona emasligi ko'rsatilgan. O.N.Hakimov ikkinchi tartibli Keli daraxtidagi Vannimenus modeli uchun translyatsion-invariant va davriy  $p$ -adik kvazi Gibbs o'lchovlarini o'rgangan. Ushbu ishlar F.M.Muxamedov, M.K.Saburov va O.N.Hakimovning ishlarida Izing-Vannimenus modeli uchun davom ettirilgan. Bir jinsli Izing modeli uchun yagona  $p$ -adik Gibbs o'lchovining mavjudligi M.Hamrayev, F.M.Muxamedov va U.A.Rozikov ishlarida isbotlangan. Izing modeli uchun umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lchovi tushunchasi O.N.Hakimov tomonidan kiritildi va bu model uchun translyatsion-invariant va  $G_2^{(2)}$ -davriy umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lchovlari ham o'rganilgan. Bundan tashqari, Izing modeli uchun faza almashishi mavjudligi ko'rsatilgan. Umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lchovlariga mos dinamik sistemaning xaotik tabiatga egaligi F.M.Muxamedov, O.N.Hakimov, H.Akin va M.Dogan tomonidan tadqiq qilingan.

2008-yilda ilk bora U.A.Rozikov, M.M.Rahmatullaevlar tomonidan haqiqiy sonlar maydonida kuchsiz davriy Gibbs o'lchovlari tushunchasi kiritilgan va Izing modeli uchun bunday o'lchovlarning mavjudligi tadqiq qilingan. Xususan, Keli daraxtining gruppaviy tasviridagi indeksleri ikki va to'rtga teng bo'lgan normal qism gruppalariga mos keluvchi kuchsiz davriy Gibbs o'lchovlari haqiqiy sonlar maydoni ustida aniq tavsiflangan. Shuni ta'kidlash joizki, yuqorida qayd etilgan ko'plab tadqiqotlar mavjudligiga qaramay, Keli daraxtidagi har qanday model uchun barcha limit Gibbs o'lchovlarining to'liq tasnifi hali ham olinmagan. Bundan tashqari, kuchsiz davriy umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lchovlari hozirgacha to'liq o'rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Fundamental tadqiqotlar" tarmog'i doirasida bajarilgan.

**Tadqiqot maqsadi** Keli daraxtida tashqi maydonli va tashqi maydonsiz Izing modeli uchun kuchsiz davriy umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lchovlarining mavjudligini isbotlash va ularning chegaralanganlikka tekshirish orqali berilgan modellarda faza almashinuvi mavjudligini ko'rsatish iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Ikkinchi tartibli Keli daraxtida Izing modeli uchun kuchsiz davriy umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lchovlarining mavjudligini isbotlash;

Ikkinchi va uchinchi tartibli Keli daraxtlaridagi Izing modeli uchun kuchsiz davriy umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lovlarini to'plamini tavsiflash va topilgan o'lovlarining chegaralanganligini tekshirish orqali qaralayotgan modellar uchun faza almashinuvi masalasini hal qilish;

Ikkinchi tartibli Keli daraxtida tashqi maydonli Izing modeli uchun ikki indeksli normal qism gruppaga mos keluvchi kuchsiz davriy umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lovlarini aniqlash va bu model uchun faza almashinuvi mavjudligini ko'rsatish;

Uchinchi tartibli Keli daraxtida bir jinsli tashqi maydonli Izing modeli uchun translyatsion-invariant umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lovlarini to'plamini to'liq tavsiflash va faza almashish masalasini tadqiq qilish.

**Tadqiqot obyekti:** Keli daraxtidagi tashqi maydonli va tashqi maydonsiz  $p$ -adik Izing modellari.

**Tadqiqot predmeti.** Gruppalar va graflar nazariyasi, Gibbs o'lovlarini nazariyasi, algebra va sonlar nazariyasi,  $p$ -adik analiz, chiziqli bo'lmagan Markov jarayonlari.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot ishida  $p$ -adik analiz, sonlar nazariyasi, funksional analiz, gruppalar nazariyasi, o'lovlar nazariyasi, chiziqli algebra usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Ikkinchi tartibli Keli daraxtida Izing modeli uchun kuchsiz davriy umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lovining mavjudligi isbotlangan;

Ikkinchi va uchinchi tartibli Keli daraxtlarida Izing modeli uchun kuchsiz davriy umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lovlarini qurilgan. Qurilgan o'lovlar chegaralanganlikka tekshirilgan;

Ikkinchi tartibli Keli daraxtida tashqi maydonli Izing modeli uchun indeksli ikkiga teng bo'lgan normal qism gruppaga mos keluvchi kuchsiz davriy umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lovlarini qurilgan va bu model uchun  $p > 2$  bo'lganda faza almashishi mavjudligi isbotlangan;

Uchinchi tartibli Keli daraxtidagi bir jinsli tashqi maydonli Izing modeli uchun translyatsion-invariant umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lovlarini aniqlangan va qaralayotgan model uchun  $p > 3$  bo'lganda faza almashishi mavjudligi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

$p$ -Adik analiz va sonlar nazariyasi metodlaridan atrof-muhit bilan issiqlik muvozanatida bo'lgan noarximed fizik sistemalar uchun Gibbs o'lovlarini qurishda va faza almashishlari mavjudligini tekshirishda foydalanish mumkin.

Shuningdek, kuchsiz davriy umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lovlarini to'plamida turli faza almashishlarning mavjudligini ta'minlaydigan parametr qiymatlarining aniq ifodasi xizmat ko'rsatish nazariyasi masalalarini yechishda qo'llanishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Sonlar nazariyasi,  $p$ -adik analiz, noarximed funksional analiz, noarximed Markov tasodifiy maydonlar nazariyasi,  $p$ -adik ehtimollar nazariyasi, Gibbs va noarximed o'lchovlar nazariyasi usullaridan foydalanilgan. Olingan natijalar qat'iy matematik mulohazalarga asoslanib isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati  $p$ -adik statistik mexanika va umumlashgan Gibbs o'lchovlari nazariyasi bo'yicha mavjud natijalarni boyitishi, xususan, kuchsiz davriy o'lchovlar orqali faza almashish hodisalarining xilma-xilligini aniqlashda yangi yondashuvni taklif qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati  $p$ -adik modellar yordamida murakkab tizimlarning (biologik, fizik va axborot tizimlari) xatti-harakatini modellashtirish hamda ularga oid masalalarning aniq yechimlarini izlash imkoniyatini berishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Izing modeli uchun umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lchovlari bo'yicha olingan natijalar asosida:

ikkinchi va uchinchi tartibli Keli daraxtlarida Izing modeli uchun kuchsiz davriy umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lchovlari tavsifidan va topilgan o'lchovlarning chegaralanganlikka tekshirish usullaridan №374824-2022 raqamli "Faza almashish muammolari va kritik hodisalar. Ular tenglamalarining matematik nuqtayi nazari, tez almashishlar va asimptotikalar" mavzusidagi xorijiy loyihada Izing modeli uchun kuchsiz davriy umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lchovlarini tavsiflashga doir nazariy yondashuvlar faza almashishlari va kritik hodisalarni aniqlash usullarini takomillashtirishda foydalanilgan. (O'sh davlat universitetining 2025-yil 15-oktyabrdagi №1400-sonli ma'lumotnomasi, Qirg'iziston). Ilmiy natijaning qo'llanishi faza almashishlarini va kritik haroratlarni aniqlash imkonini bergan;

Keli daraxtlaridagi Izing modeli uchun kuchsiz davriy umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lchovlari to'plamining to'liq tasnifi G0003247 raqamli "Tarmoq modellarining renormalizatsiyalangan gruppalari bilan bog'liq xaotik va aralash  $p$ -adik dinamik tizimlar" mavzusidagi xorijiy loyihada Izing modeli uchun umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lchovlarini va fazaviy o'tishlarni tadqiq etishda foydalanilgan (Birlashgan Arab Amirliklari universitetining 2025-yil 23-oktyabrdagi ma'lumotnomasi, BAA). Ilmiy natijaning qo'llanishi  $p$ -adik dinamik sistemalar nazariyasiga yangi tushunchalar kiritish va fizik modellarning termodinamik xususiyatlarini o'rganish uchun amaliy asos yaratish imkonini bergan;

ikkinchi tartibli Keli daraxtida berilgan  $p$ -adik Izing modeli uchun kuchsiz davriy umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lchovlarining mavjudligini tekshirish usullaridan F-FA-2021-425 raqamli "Panjarali sistemalarda gradient ehtimollik o'lchovlari" mavzusidagi fundamental loyihada panjarali sistemalarda faza almashishlari mavjudligini aniqlashda foydalanilgan (Matematika institutining 2025-yil 27-oktyabrdagi №2/416-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijaning

qo'llanishi panjarali sistemalarda yaqin qo'shni ta'sirga ega modellar uchun davriy bo'lmagan Gibbs o'lchovlarini tavsiflash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 12 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 8 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya tadqiqoti mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining falsafa doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta, jumladan, 4 tasi xorijiy va 2 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, o'nta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 114 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va tanlanish asoslari bayon etilgan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, mavzuga oid xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlarning tahlili keltirilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi ochib berilgan. Shuningdek, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy yangiligi, nazariy hamda amaliy ahamiyati yoritilgan. Bundan tashqari, tadqiqot natijalarining tatbiq etilishi, nashr etilgan ilmiy maqolalar va dissertatsiyaning tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "***p*-Adik analiz va *p*-adik o'lchovlar haqida**" deb nomlangan birinchi bobi olingan natijalarni tavsiflash uchun ishlatiladigan asosiy tushunchalar va ta'riflar, shuningdek, tadqiqot davomida qo'llanilgan fundamental teoremlarni taqdim etadi. Bundan tashqari, ushbu bobda Keli daraxtidagi Izing modeli uchun *p*-adik Gibbs o'lchovining yagonaligi, umumlashgan *p*-adik Gibbs o'lchovlari tushunchasi va ikkinchi tartibli Keli daraxtidagi Izing modelida bunday o'lchovlar uchun olingan natijalar muhokama qilinadi. Ushbu bob keyingi boblarda taqdim etilgan asosiy ilmiy natijalarni tushuntirish va asoslash uchun nazariy hamda metodologik poydevor bo'lib xizmat qiladi.

$\mathbb{Q}$  ratsional sonlar maydoni bo'lsin. Ma'lumki, biror fiksirlangan *p* tub son uchun ixtiyoriy noldan farqli *x* ratsional sonni  $x = p^r \frac{m}{n}$  ko'rinishda tasvirlash mumkin. Bu yerda  $m, r \in \mathbb{Z}$ ,  $n \in \mathbb{N}$ , *m* va *n* sonlari *p* tub songa bo'linmaydi. Bu holda *x* ratsional sonni *p*-adik normasi quyidagicha aniqlanadi:

$$|x|_p = p^{-r}.$$

Shuningdek,  $x=0$  bo'lganda esa uning *p*-adik normasi quyidagicha aniqlanadi:

$$|0|_p = 0.$$

Ushbu norma noarximed normasidir, ya'ni barcha  $x, y \in \mathbb{Q}$  uchun u kuchli uchburchak tengsizligini qanoatlantiradi:

$$|x + y|_p \leq \max\{|x|_p, |y|_p\}.$$

$\mathbb{Q}$  ratsional sonlar maydonining  $p$ -adik norma bo'yicha to'ldirmasiga  $p$ -adik sonlar maydoni deyiladi va bu maydon  $\mathbb{Q}_p$  kabi belgilanadi. Har qanday nolga teng bo'lmagan  $x$   $p$ -adik sonni yagona kanonik ko'rinishda yozish mumkin:

$$x = p^{\gamma(x)}(x_0 + x_1 p + x_2 p^2 + \dots),$$

bu yerda  $\gamma(x), x_j \in \mathbb{Z}$  va  $x_0 > 0, 0 \leq x_j \leq p - 1$ . Bu holda,  $|x|_p = p^{-\gamma(x)}$ .

Quyida biz tadqiqotimiz uchun muhim bo'lgan to'plamlarni keltiramiz:  $a \in \mathbb{Q}_p$  va  $r > 0$  sonlar berilgan bo'lsin.  $a$  markazli  $r$  radiusli ochiq shar :

$$B(a, r) = \{x \in \mathbb{Q}_p : |x - a|_p < r\},$$

$a$  markazli  $r$  radiusli yopiq shar:

$$\overline{B(a, r)} = \{x \in \mathbb{Q}_p : |x - a|_p \leq r\},$$

$a$  markazli  $r$  radiusli sfera:

$$S(a, r) = \{x \in \mathbb{Q}_p : |x - a|_p = r\},$$

$p$ -adik butun sonlar:

$$\mathbb{Z}_p = \{x \in \mathbb{Q}_p : |x|_p \leq 1\},$$

$p$ -adik birlar:

$$\mathbb{Z}_p^* = \{x \in \mathbb{Q}_p : |x|_p = 1\}$$

kabi aniqlanadi.

$p$ -adik Gibbs o'lchovlar nazariyasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi funktsiyani keltiramiz.

$p$ -adik eksponensial funktsiya quyidagi qator ko'rinishida aniqlanadi:

$$\exp_p(x) = \sum_{n=1}^{\infty} \frac{x^n}{n!},$$

hamda u  $B(0, p^{-1/(p-1)})$  sharda yaqinlashadi.

$p$ -adik eksponensial funktsiyaning qiymatlari to'plami

$$\mathcal{E}_p = \{x \in \mathbb{Q}_p : |x - 1|_p < p^{-1/(p-1)}\}.$$

Faraz qilaylik,  $(X, \mathfrak{B})$ -o'lchovli fazo, bunda  $\mathfrak{B}$  oila  $X$  to'plamning qism to'plamlaridan tashkil topgan algebra va  $\mathbb{K}$  noarximed maydon bo'lsin. Agar  $\mu: \mathfrak{B} \rightarrow \mathbb{K}$  funktsiya chekli additiv bo'lsa, ya'ni juft-jufti bilan o'zaro kesishmaydigan  $A_1, A_2, \dots, A_n \in \mathfrak{B}$  uchun  $A = \bigcup_{k=1}^n A_k \Rightarrow \mu(A) = \sum_{k=1}^n \mu(A_k)$  o'rinli bo'lsa, u holda  $\mu$  to'plam funktsiyasiga *noarximed o'lchov* deyiladi. Agar  $\mu(X) = 1$  bo'lsa, bunday o'lchov *noarximed ehtimollik o'lchovi* deyiladi.

Agar  $\mu$  noarximed o'lchovi chegaralangan, ya'ni  $\sup\{\mu(A)|_p : A \in \mathfrak{B}\} < \infty$  bo'lsa, u holda  $\mu$  chegaralangan noarximed o'lchov deyiladi.

$\Gamma^k = (V, L)$   $k$ -tartibli Keli daraxti bo'lsin. Bunda  $V$  daraxtning uchlari to'plami,  $L$  uning qirralari to'plami. Agar  $x, y \in V$  uchlar uchun ularni tutashtruvchi  $l \in L$  qirra mavjud bo'lsa, u holda  $x$  va  $y$  uchlar yaqin qo'shnilar deyiladi va  $l = \langle x, y \rangle$  kabi belgilanadi. Keli daraxtida  $x, y \in V$  uchlar orasidagi yo'l deb  $\langle x, x_1 \rangle, \dots, \langle x_{d-1}, y \rangle$  yaqin qo'shnilar ketma-ketligiga aytiladi.  $x$  va  $y$  ni tutashtruvchi eng qisqa yo'ldagi qirralar soni  $d(x, y)$  bilan aniqlanadi.

Fiksirlangan  $x^0 \in V$  uchun quyidagicha belgilashlar kiritilgan:

$$W_n = \{x \in V : d(x, x^0) = n\}; \quad V_n = \bigcup_{j=0}^n W_j; \quad S(x) = \{y \in W_{n+1} : d(x, y) = 1\}, \quad x \in W_n;$$

$$L_n = \{l = \langle x, y \rangle \in L : x, y \in V_n\}; \quad S_1(x) = \{y \in V : d(x, y) = 1\}; \quad \{x_\downarrow\} = S_1(x) \setminus S(x).$$

$G_k$ -barpo etuvchilari mos ravishda  $a_1, a_2, \dots, a_{k+1}$  bo'lgan  $k+1$  ta ikkinchi tartibli siklik gruppalarining ozod ko'paytmasidan iborat gruppaga bo'lsin.

Quyidagi tasdiq N.N.G'anixo'jayevning ishlaridan ma'lum.

**1-tasdiq.**  $k$ -tartibli Keli daraxtining  $V$  uchlar to'plami bilan  $G_k$  gruppaga o'rtasida o'zaro bir qiymatli moslik mavjud bo'ladi.

$\Phi \subset \mathbb{Z}$  chekli to'plam berilgan bo'lsin.  $\Lambda \subset V$  to'plamda aniqlangan  $x \in \Lambda \rightarrow \sigma_\Lambda(x) \in \Phi$  funksiya konfiguratsiya deyiladi.  $\Lambda$  to'plamda aniqlangan barcha konfiguratsiyalar to'plami  $\Omega_\Lambda = \Phi^\Lambda$  kabi belgilanadi. Xususan,  $\Omega = \Omega_V$ .

Berilgan  $\sigma \in \Omega_\Lambda$  va  $\varphi \in \Omega_{V \setminus \Lambda}$  konfiguratsiyalar uchun quyidagi aniqlangan:

$$(\sigma \vee \varphi)(x) = \begin{cases} \sigma(x), & \text{agar } x \in \Lambda, \\ \varphi(x), & \text{agar } x \in V \setminus \Lambda. \end{cases}$$

$\sigma \in \Omega$  konfiguratsiyaning energiyasi ushbu

$$H(\sigma) = \sum_{\substack{\Lambda \subset V: \\ \text{diam}(\Lambda) \leq r}} I(\sigma_\Lambda),$$

*Gamiltonian* orqali beriladi, bu yerda  $r \in \mathbb{N}$ ,  $\text{diam}(\Lambda) = \max_{x, y \in \Lambda} d(x, y)$  va

$I : \Omega_\Lambda \rightarrow \mathbb{Q}_p$  berilgan potensialni ifodalaydi.

$\mathfrak{B}$  oila  $\Omega$  to'plamning silindrik qism to'plamlaridan tuzilgan algebra bo'lsin.

**1-ta'rif.**  $(\Omega, \mathfrak{B})$  da aniqlangan  $\mu$   $p$ -adik ehtimollik o'lchovi berilgan bo'lsin. Faraz qilaylik, ixtiyoriy  $\Lambda \subset V$  uchun

$$\mu(\sigma | \varphi) = \frac{\exp_p \{H(\sigma \vee \varphi)\}}{Z_{\Lambda, \varphi}}, \quad \forall \sigma \in \Omega_\Lambda, \quad \forall \varphi \in \Omega_{V \setminus \Lambda},$$

o'rinli bo'lsin. Bu yerda  $Z_{\Lambda, \varphi}$  normallovchi o'zgarma bo'lib, u quyidagicha aniqlanadi:

$$Z_{\Lambda, \varphi} = \sum_{\omega \in \Omega_{\Lambda}} \exp_p \{H(\omega \vee \varphi)\}.$$

Bunday o'lovga  $p$ -adik Gibbs o'lovchi deyiladi.

Birinchi bob uchunchi paragrafda Izing modeli uchun  $p$ -adik Gibbs o'lovchining yagonaligi, umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lovchi tushunchasi va 2-tartibli Keli daraxtida Izing modeli uchun olingan natijalar keltirilgan.

$\Phi = \{-1, 1\}$  bo'lsin.  $\Omega_{V_n}$  da Izing modelining Gamiltoniani quyidagicha aniqlanadi:

$$H_n(\sigma_n) = J \sum_{\langle x, y \rangle \in L_n} \sigma_n(x) \sigma_n(y), \quad (1)$$

bunda  $0 < |J|_p < p^{-1/(p-1)}$  o'zgarmasdir.

$h: x \rightarrow h_x, \forall x \in V, h_x \in \mathbb{Q}_p$  funksiya bo'lsin.  $\Omega_{V_n}$  dagi quyidagicha aniqlangan  $\mu_h^{(n)}$   $p$ -adik ehtimollik o'lovchini qaraylik:

$$\mu_h^{(n)}(\sigma_n) = \frac{1}{Z_n^{(h)}} \exp_p \{H_n(\sigma_n)\} \prod_{x \in W_n} h_x^{\sigma_n(x)}, \quad n = 1, 2, \dots, \quad (2)$$

bu yerda  $Z_n^{(h)}$  normallovchi bo'luvchi bo'lib, u

$$Z_n^{(h)} = \sum_{\sigma_n(x) \in \Omega_{V_n}} \exp_p \{H_n(\sigma_n)\} \prod_{x \in W_n} h_x^{\sigma_n(x)},$$

formula bilan aniqlanadi.

Agar (2) formula orqali aniqlangan  $p$ -adik ehtimollik o'lovchilari uchun ixtiyoriy  $n \in \mathbb{N}$  va  $\sigma_{n-1} \in \Phi^{V_{n-1}}$  da

$$\sum_{\omega_n \in \Omega_{W_n}} \mu_h^{(n)}(\sigma_{n-1} \vee \omega_n) = \mu_h^{(n-1)}(\sigma_{n-1}), \quad (3)$$

tenglik o'rinli bo'lsa, u holda bu o'lovlar muvofiqlik shartini qanoatlantiradi, deyiladi. Agar (2) formula orqali aniqlangan  $p$ -adik ehtimollik o'lovchi (3) shartni qanoatlantirsa, u holda N.N.G'anixo'jayev, F.M.Muxamedov, U.A.Rozikovlar tomonidan isbotlangan Kolmogorovning o'lovni davom ettirish haqidagi teoremasining  $p$ -adik muqobiliga ko'ra, ixtiyoriy  $n \in \mathbb{N}$  va  $\sigma_n \in \Omega_{V_n}$  uchun  $\mu_h(\{\sigma \in \Omega: \sigma|_{V_n} \equiv \sigma_n\}) = \mu_h^{(n)}(\sigma_n)$  shartni qanoatlantiruvchi  $\Omega$  da yagona  $p$ -adik limit Gibbs o'lovchi mavjud bo'ladi.

F.M.Muxamedov ishlarida  $p$ -adik Gibbs o'lovchilari uchun faza almashish tushunchasi keltirilgan. Agar berilgan model uchun kamida ikkita  $\mu, \nu$   $p$ -adik Gibbs o'lovchilari mavjud bo'lib, ulardan biri chegaralangan, boshqasi esa chegaralanmagan bo'lsa, u holda berilgan model uchun faza almashish mavjud deyiladi. Bundan tashqari, agar ikkita turli  $h$  va  $s$  funksiyalar mavjud bo'lib, ularga mos  $\mu_h, \mu_s$   $p$ -adik Gibbs o'lovchilarining har ikkisi yoki chegaralangan, yoki chegaralanmagan bo'lsa, u holda kvazi faza almashishi ro'y beradi deyiladi.

M.Hamrayev, U.A.Rozikov hamda F.M.Muxamedovlarning ishlarida Keli daraxtidagi bir jinsli Izing model uchun  $p$ -adik Gibbs o'lovchilarining yagonalik

masalasi tadqiq qilingan. Ular bu model uchun faza almashinuvi mavjud emasligini, ya'ni yagona  $p$ -adik Gibbs o'lchovi mavjud ekanligini isbotlaganlar.

2014-yilda O.N.Hakimov Izing modeli uchun umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lchovlari tushunchasini kiritdi. Agar qandaydir  $h$  funksiyasi uchun  $\mu_h^{(n)}$  o'lchovlari (3) muvofiqlik shartini qanoatlantirsa, u holda yagona  $p$ -adik ehtimollik o'lchovi mavjud bo'lib, uni  $h$  ga bog'liqligi sababli  $\mu_h$  bilan belgilangan. Bunday  $\mu_h$  o'lchov  $p$ -adik Izing modeliga mos umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lchovi deyilgan.

Agar  $\forall x \in V$  uchun  $h_x \in \mathcal{E}_p$  bo'lsa, bunday  $h = \{h_x, x \in V\}$  miqdorlarga mos kelgan umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lchovi  $p$ -adik Gibbs o'lchovi bo'ladi.

Ma'lumki, Keli daraxtida Izing modeli uchun (2) ko'rinishda aniqlangan  $\{\mu_h^{(n)}\}_{n \geq 1}$  ehtimollik o'lchovlari ketma-ketligi (3) muvofiqlik shartini qanoatlantirishi uchun ixtiyoriy  $x \in V \setminus \{x^0\}$  da  $h = \{h_x, x \in V\}$  miqdorlar to'plami ushbu

$$h_x^2 = \prod_{y \in S(x)} \frac{\theta h_y^2 + 1}{h_y^2 + \theta}, \quad (4)$$

tenglikni qanoatlantirishi zarur va yetarli, bu yerda  $\theta = \exp_p \{2J\}$ .

Shuningdek, O.N.Hakimov ikkinchi tartibli Keli daraxtida Izing modeli uchun translyatsion-invariant va davriy umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lchovlarni topdi. Topilgan o'lchovlarni chegaralanganlikka tekshirib, qaralayotgan model uchun faza almashishi masalasini hal qildi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Keli daraxtida Izing modeli uchun kuchsiz davriy umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lchovlari**" deb nomlanadi. "*Keli daraxtidagi kuchsiz davriy Gibbs o'lchovlari*" deb nomlangan 2.1-paragrafda asosiy tushunchalar, ma'lum natijalar keltirilgan. "*Keli daraxtida kuchsiz davriy umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lchovining mavjudligi*" deb nomlangan 2.2-paragrafda Izing modeli uchun kuchsiz davriy umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lchovlarining mavjudligi isbotlandi. "*Ikkinchi va uchinchi tartibli Keli daraxtlarida kuchsiz davriy umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lchovlari*" deb nomlangan 2.3-paragrafda 2- va 3-tartibli Keli daraxtlaridagi Izing modeli uchun bunday o'lchovlar qurilgan va o'rganilgan. Bu o'lchovlarning chegaralanganlik va faza almashinuvi masalalari "*Kuchsiz davriy umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lchovlarining chegaralanganligi va faza almashish muammosi*" deb nomlangan 2.4-paragrafda hal qilingan.

Ilk bora 2008-yilda U.A.Rozikov va M.M.Rahmatullayevlar tomonidan translyatsion-invariant va davriy o'lchovlar tushunchalaridan ko'ra umumiyroq bo'lgan kuchsiz davriy Gibbs o'lchovi tushunchasi kiritildi. Quyida bu tushunchalar keltirilgan.

$G_k^* - G_k$  gruppning chekli indeksli normal qism gruppasi va  $G_k / G_k^* = \{H_0, H_1, \dots, H_{r-1}\}$  - chekli ( $r \geq 1$  indeksli) faktor gruppasi bo'lsin.

**2-ta'rif.** Barcha  $x \in H_i$  lar uchun  $h_x = h_i$  tenglik o'rinli bo'ladigan  $h = \{h_x, x \in G_k\}$  miqdorlar to'plami  $G_k^*$ -kuchsiz davriy deb ataladi.  $G_k$ -davriy miqdorlar translyatsion-invariant deb ataladi.

**3-ta'rif.** Ixtiyoriy  $x \in H_i$  va  $x_{\downarrow} \in H_j$  lar uchun  $h_x = h_{i,j}$  o'rinli bo'ladigan  $h = \{h_x, x \in G_k\}$  miqdorlar to'plami  $G_k^*$ -davriy deb ataladi.

**4-ta'rif.**  $G_k^*$ -(kuchsiz) davriy  $h$  ga mos  $\mu$  umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lchovi  $G_k^*$ -(kuchsiz) davriy umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lchovi deb ataladi.  $G_k$ -davriy o'lchov translyatsion-invariant o'lchov deyiladi.

Ta'kidlash lozimki,  $G_k$  gruppning ixtiyoriy ikki indeksli normal bo'luvchisi

$$H_A = \{x \in G_k : \sum_{i \in A} \omega_x(a_i) - \text{juftson}\}$$

ko'rinishida bo'lib,  $\emptyset \neq A \subseteq N_k = \{1, 2, 3, \dots, k+1\}$  va  $\omega_x(a_i) - x \in G_k$  so'zdagi  $a_i$  harflar sonidir.  $H_A - G_k$  ning normal qism gruppasi. Ko'rish mumkinki, kuchsiz davriy Gibbs o'lchovlari  $G_k$  ning normal qism gruppasining tanlanishiga bog'liq.  $|A| = k+1$  bo'lgan holda, ya'ni  $A = N_k$  bo'lsa, kuchsiz davriylik tushunchasi odatdagi davriylik tushunchasi bilan ustma-ust tushadi. Shuning uchun biz  $A \neq N_k$  bo'lgan  $A \subset N_k$  holni qaraymiz. Shunda  $H_A$ -kuchsiz davriy  $h_x$  lar to'plami quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$h_x = \begin{cases} h_{00}, & \text{agar } x \in H_0, x_{\downarrow} \in H_0 \text{ bo'lsa,} \\ h_{01}, & \text{agar } x \in H_0, x_{\downarrow} \in H_1 \text{ bo'lsa,} \\ h_{10}, & \text{agar } x \in H_1, x_{\downarrow} \in H_0 \text{ bo'lsa,} \\ h_{11}, & \text{agar } x \in H_1, x_{\downarrow} \in H_1 \text{ bo'lsa,} \end{cases}$$

bu yerda  $H_0 := H_A$  va  $H_1 := G_k \setminus H_A$ .

Haqiqiy sonlar maydoni ustida ikki indeksli va to'rt indeksli normal qism gruppalariga mos kuchsiz davriy Gibbs o'lchovlari U.A.Rozikov, M.M.Rahmatullayev va J.D.Dehqonovlarning tadqiqotlarida yetarlicha o'rganilgan. Bundan tashqari, D.Gandolfo, J.Ruiz va S.Shlosmanlar tomonidan  $k$ -tartibli Keli daraxtida Gibbs o'lchovlarining kuchsiz davriy Gibbs o'lchovlaridan farqli yangi sinfi qurilgan.

Ikkinchi bob birinchi paragrafda  $p$ -adik sonlar maydoni ustida 2-tartibli Keli daraxtida Izing modeli uchun kuchsiz davriy umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lchovlari mavjudligi isbotlanib, quyidagi natija olindi:

**1-teorema.** Agar  $p \equiv 1 \pmod{4}$  bo'lsa, u holda 2-tartibli Keli daraxtida Izing modeli uchun kamida bitta  $H_A$ -kuchsiz davriy umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lchovi mavjud bo'ladi.

1-teoremada  $p$ -adik sonlar maydonida kamida bitta kuchsiz davriy umumlashgan Gibbs o'lchovi mavjudligi ko'rsatilgan. Ushbu natijaga asoslanib,

ikkinchi tartibli Keli daraxtida Izing modeli uchun barcha kuchsiz davriy umumlashgan  $p$ -adik Gibbs o'lchovlarining tavsifi quyidagi teoremda keltirilgan.

